

elita^{uz}

Elektron Ilmiy
Jurnal

No.1 (2)
2024

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> ELEKTRON TIJORATNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TARIXI VA MUAMMOLAR	3-11
<i>Olimjonova Hulkar To'lqin qizi</i> SUG'URTA KOMPANIYALARINING MILLIY FOND BOZORIDAGI FAOL ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRUVCHI HUQUQIY MEXANIZMLAR	12-20
<i>Salimov Islombek Bobir o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATDA INTERNET-REKLAMA FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR. ILMIY TAHLIL	21-27
<i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i> MUSHARAKA VA MUDORABA: ISLOMIY MOLIYA VOSITALARI VA ULARNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI ODDIY SHIRKAT SHARTNOMASIGA INTEGRATSIYASI	28-37
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> METAVERSE PLATFORMALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING GLOBAL STANDARTI VA XALQARO HAMKORLIK	38-47
<i>Razzaqova E'zoza Yusup qizi</i> RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MAVQE TUSHUNCHASI	48-56
<i>Allanazarova Xavajon Axmedovna</i> DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING YURIDIK SHAXSLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI	57-64
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA SHAFFOFLIK MUAMMOLARI	65-77

FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA SHAFFOFLIK MUAMMOLARI

Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li | isoqovahmadali843@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik va iqtisodiy protsessda shaffoflik va ochiqlikning tushunchasi, mazmuni, nisbati va ahamiyatiga oid nazariy va amaliy masalalar, bu masala bo'yicha yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan g'oyalar, taklif va mulohazalar, shuningdek xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi tahlil qilingan. Tahlillar natijasida fuqarolik va iqtisodiy protsessda sudlar faoliyatining shaffofligi va ochiqligining tushunchasi, mazmuni, nisbati va ahamiyatiga oid nazariy tushunchalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: sudlar faoliyati, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish, halollik, shaffoflik, ochiqlik, tadbirkorlar ishonchi, oshkoralik, axborot texnologiyalari, huquqiy asoslar, arxivlash, axborotlashtirish, huquqiy hujjatlar, davlat kafolati, huquqiy mexanizm, takomillashtirish.

PROBLEMS OF TRANSPARENCY IN THE CIVIL AND ECONOMIC PROCESS

Isakov Ahmadali Komiljon ugli

Master's degree student of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical issues related to the concept, content, proportion and importance of transparency and openness in the civil and economic process, the ideas, suggestions and opinions put forward in the legal literature on this issue, as well as the legislative experience of foreign countries. As a result of the analysis, theoretical concepts regarding the concept, content, proportion and importance of the transparency and openness of the

courts in the civil and economic proceedings, proposals aimed at improving the legislation were put forward.

Key words: court activity, conducting civil and economic court cases, honesty, transparency, openness, trust of entrepreneurs, transparency, information technologies, legal bases, archiving, information, legal documents, state guarantee, legal mechanism, improvement.

ПРОБЛЕМЫ ПРОЗРАЧНОСТИ ГРАЖДАНСКОГО И ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА

Исаков Ахмадали Комилжон угли

Студент магистратуры Ташкентского государственного юридического университета.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические вопросы, связанные с понятием, содержанием, пропорцией и значением прозрачности и открытости в гражданском и экономическом процессе, идеи, предложения и мнения, высказанные в юридической литературе по этому вопросу, а также законодательной базе. опыт зарубежных стран. В результате анализа выдвинуты теоретические концепции относительно понятия, содержания, доли и значения прозрачности и открытости судов в гражданском и хозяйственном судопроизводстве, предложения, направленные на совершенствование законодательства.

Ключевые слова: судебная деятельность, ведение гражданских и хозяйственных судебных дел, честность, прозрачность, открытость, доверие предпринимателей, прозрачность, информационные технологии, правовые основы, архивирование, информация, правовые документы, государственная гарантия, правовой механизм, совершенствование.

Jahon mamlakatlari sud tizimida sudyalar tomonidan hallollik, sotilmaslik, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish, sudlarning odil sudlovni amalga oshirishda ularning haqiqiy mustaqilligini davlat tomonidan kafolatlash bilan bir qatorda odil sudlovning shaffofligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Binobarin, BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining 2006-yil 27-iyuldagi 2006/23-sonli “Sudyalarni yurish-turishining asosiy prinsiplarini mustahkamlash rezolyusiyasi” bilan tasdiqlangan Sudyalar axloqining Bangalor prinsiplarining 3.2.-bandida “sudyaning xatti-harakati va xulq-atvori jamoatchilikning sud organlarining halol va sotilmasligiga bo‘lgan ishonchini oshirishga xizmat qilishi shart. Odil sudlovni amalga oshirish yetarli emas, buni jamiyat uchun ochiq amalga oshirish kerak”ligi o‘z ifodasini topgan.[1] Shuningdek, 1995-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan “Odil sudlovning oshkoraligi, axborot shaffofligi prinsiplari va ularni sudlar faoliyatiga tatbiq qilish bo‘yicha tavsiyasi”da huquqiy axborot olish bo‘yicha qidiruv tizimida sud qarorlarini tanlash, qayta ishlash, taqdim etish va arxivlashning mavjud bo‘lishi demokratik davlatlarda sud hokimiyatining qonuniyligini belgilab beradigan muhim faktor ekanligi belgilab qo‘yilgan.[2]

Darhaqiqat, jamiyat a‘zolarining sudga nisbatan bo‘lgan ishonchi bu mustaqil va adolatli odil sudlovning muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi. Sudlarga nisbatan ishonchning shakllanishida esa avvalo sudlar faoliyatida shaffoflikni ta‘minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahnamoligida yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida mamlakatimizda ham sudda ish yuritishda shaffoflikni ta‘minlash, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada oshirishga qaratilgan vazifalar belgilangan.

Sudlarda qaror qabul qilish jarayonlarini qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari shaffof bo‘lishini ta‘minlash, sud hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishni talab qilmoqda. Bu esa sud amaliyotida nisbatan ko‘pchilikni tashkil etadigan fuqarolik va iqtisodiy nizolarni sudlar tomonidan ko‘rilishida oshkoralikni ta‘minlashning huquqiy tabiati, shaffoflikni ta‘minlash chegarasi va kafolatlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ta‘kidlash joizki, keyingi yillarda mamlakatimizda axborotlashtirish sohasini tartibga soluvchi mukammal huquqiy baza yaratildi va hozirda mazkur harakatlar aynan protsessual kodekslarni takomillashtirish maqsadlariga qaratilmoqda.

Xususan, keyingi yillarda respublikamizda qabul qilingan “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida’gi, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Aloqa to‘g‘risida”gi, “Telekommunikatsiya to‘g‘risida’gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi, “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma‘lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida’gi, “Axborot-kutubxona to‘g‘risida”gi, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida’gi Qonunlar va boshqa ko‘plab qonunosti normativ huquqiy hujjatlar bevosita axborotlashtirish sohasini huquqiy tartibga solish, sohani axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta‘minlashda muxim ko‘makchi bo‘ladi.

Mamlakatimizda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan yangi O‘zbekistonni barpo etish sharoitida odil sudlovning sifati va samaradorligini oshirish taqozo etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son farmoni bilan tasdiqlangan “2023 - 2026 yillarga mo‘ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi” ham sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta‘minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur strategiyada sudlar faoliyatini to‘liq raqamlashtirish, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma‘lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish; asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Shuningdek, Strategiyaning 3.7.-bandida sudlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va axborot xavfsizligini ta‘minlash nazarda tutilgan bo‘lib, unda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish ishlarini yanada jadallashtirish; sudlar faoliyatiga fuqarolarga huquqiy yordam ko‘rsatish, sud hujjatlarini avtomatik tayyorlash va sud qarorlarini tahlil qilish yo‘nalishida sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha choralar ko‘rish kabi chora-tadbirlar nazarda tutildi.[3]

Shu ma‘noda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, sudlarda ishlarni yuritish samaradorligini oshirishni ta‘minlaydigan axborot tizimlari va resurslarini yaratish hamda elektron hujjat almashinuvini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotining turli sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil ravishda kirib kelayotganligi odil sudlovni amalga oshirish tartib-taomillariga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Asosan yozma tusga ega bo'lgan sud ishlarini rasmiylashtirish zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshirilayotgan tezkor ish muomalalaridan ortda qolishi mumkin emas.

O'z navbatida, sud ishlarini yuritishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, sudlar faoliyatida kompyuterlashtirish darajasini va kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligini oshirish sudyalarning ish hajmini pasaytirishga, turli moliyaviy sarf-xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Qolaversa, jamiyatda demokratiya va adolatni ta'minlashning eng muhim omili bo'lmish sud hokimiyatining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi uning jamiyatda tutgan o'rni va obro'sini ham oshiradi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud tizimi xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4459-sonli Farmonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zimmasiga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi bilan kelishgan xolda sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturini tasdiqlash, sudlarning tarkibiy tuzilmasida axborotlashtirish masalalari bo'yicha alohida bo'linmalar tashkil qilish to'g'risida takliflar kiritish vazifasi yuklatilgan edi.

Mazkur Farmonning ijrosini ta'minlash, shuningdek sud ishlarini yuritish tezkorligini oshirish uchun sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish maqsadida 2012 yil 10 dekabrda Uzbekistan Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 346-sonli Qarori kabul kilindi.

Darhaqiqat, sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish sudlarda elektron hujjatlar aylanishini tezlashtiradi, sudlar faoliyati to'g'risidagi axborotlarni to'plash, ishlash, tizimlashtirish va saqlanishini ta'minlaydi, axborot tizimi yordamida elektron vositalar orqali sudga murojaat qilish imkoniyatining berilishi esa sud orqali himoya qilish uchun qulayliklar yaratadi, axborot tizimi orqali elektron shaklda sud muhokamasi ishtirokchilarini xabardor qilish va ularga sud hujjatlarini hamda boshqa xat-xabarlarni yuborish imkoniyatini yaratadi, bular oxir-oqibat odil sudlovning samarasini oshirishga, uning tezkorligi va qulayligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda respublika sudlarida ko'rib tamomlangan ishlar hajmining yildan-yilga ko'payib borayotganligi, buning natijasida sudda ish ko'rish bo'yicha sudyalarning o'rtacha oylik ish yuklamasi ortib borayotgani sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni taqozo etayotgan edi.

2015-yil 10-iyun kuni matbuotda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi O'RQ-388-sonli Qonunining 2016-yilning 1-yanvaridan e'tiboran amalga kiritilgan 5-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga qaratilgan qator o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Yuqorida qayd etilgan qonun bilan fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan muhim yangiliklardan biri fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga elektron murojaat kilish elektron shaklda ham amalga oshirilishi bilan bog'liq bo'ldi. FPKning 238³-moddasiga kiritilgan o'zgartishga ko'ra, sud buyrug'ini chiqarish to'g'risidagi ariza sudga yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda berilishi nazarda tutildi. Shuningdek, axborot tizimi orqalielektron shaklda sudga beriladigan arizalar qatorida hakamlik sudining hal qiluv qarorini bekor qilish to'g'risidagi arizalar (309⁵-modda), hakamlik sudining hal qiluv qarorini majburiy ijro etish uchun ijro varaqasi berish to'g'risidagi arizalar 309⁰-modda) ham o'rin oldi. Undan tashqari, FPKning 330, 348-moddalarida apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlari berilgan yoki protest keltirilgandan keyin da'vogarning arz qilgan talablaridan voz kechishi, javobgarnyng da'vogar talablarini tan olishi va taraflarning kelishuv bitimi tuzishi yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqalielektron shaklda bayon etilib, apellyatsiya, kassatsiya instansiyasi sudiga topshirilishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, sudga taqdim etilayotgan da'vo arizasi, ariza va shikoyatlarning mazmuni bayon etilgan FPKning 149-moddasiga arizada da'vogarning yoki uning vakilining, shuningdek boshqa tarafning telefonlari va fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkinligi, arizada elektron manzil ko'rsatilganligi arizachining sud chaqiruv qog'ozlarini va boshqa xabarnomalarni, sud hal qiluv qarorlarining va ajrimlarining nusxalarini axborot tizimi orqali elektron shaklda olishga bo'lgan roziligini bildirishi haqidagi

normalar bilan to'ldirildi. Bu o'z navbatida sudga murojaat qilgan va o'z arizalarida elektron manzilini ko'rsatgan manfaatdor shaxslar kelajakda sud chaqiruv qog'ozlarini va boshqa xabarnomalarni, sud hal qiluv qarorlarining va ajrimlarining nusxalarini axborot tizimi orqali elektron shaklda olish imkoniyatlariga ega bo'lishini ko'rsatadi.

Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan yangiliklarning navbatdagisi ishda ishtirok etuvchi shaxslar, shuningdek guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar xabardor qilinganlik fakti kayd etilishini ta'minlaydigan boshqa aloqa vositalari orqali sudga chaqirilishi hamda sudning ayrim protsessual xarakatlari to'g'risida xabardor qilinishi bilan bog'likdir.

Xususan, FPKning 135-moddasi ishda ishtirok etuvchi shaxs tomonidan elektron manzili ko'rsatilgan taqdirda chaqiruv qog'ozi axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilishi mumkinligi xaqidagi yangi norma bilan to'ldirildi. Shunga monand ravishda FPKning 133-moddasida sud chaqiruv qog'ozining mazmuniga qo'yilgan talablarga sudning telefon raqami va elektron manzilining ko'rsatilishi hamda axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilayotgan sud chaqiruv qog'ozida ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlar belgilab qo'yildi.

Protsess ishtirokchilarining huquqlarini kafolatlash maqsadida konun bilan telefonogrammalar, telegrammalar va xabardor kilinganlik fakti kayd etilishini ta'minlaydigan boshqa aloqa vositalari orqalisudga chakirilgan yoki sudning ayrim protsessual xarakatlari to'g'risida xabardor kilingan hollarda, telefonogrammalar, telegrammalar, axborot tizimi orqalielektron shaklda yuborilgan sud chaqiruv qog'ozining nusxasi ish materiallariga qo'shib ko'yilishi kabi talablar mustahkamlab ko'yildi.

Qonunda protsess ishtirokchilarining, xususan o'z arizasida elektron manzilini ko'rsatgan shaxslarning mas'uliyatini oshirish maqsadida axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilingan shaxsning kelmaganligi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmasligi kabi norma nazarda tutildi. Darhaqiqat, kelgusida elektron shaklda sud chaqiruv qog'ozini olishga rozilik bergan shaxs, mazkur elektron xatni o'qimasligi yoki o'qishdan bosh tortishi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmasligi mantiqan to'g'ri hisoblanadi. Shuningdek, ishda ishtirok etuvchi shaxslarga telefonlari va fakslarining raqamlarini, elektron manzilini sudga ma'lum qilgan taqdirda, ish yuritilayotgan vaqtda ularning o'zgarganligi haqida sudni xabardor qilish mas'uliyati ham yuklandi (FPKning 138-moddasi). Fuqarolik protsessual qonunchilikka kiritilgan ushbu o'zgartish va

qo'shimchalar odil sudlovning tezkorligi va qulayligini ta'minlashga, sud ish yurituvini yanada demokratlashtirishga, sud xarajatlarini kamaytirishga, shuningdek protsess ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

FPKga kiritilgan yangiliklarning navbatdagisi - sud qarorlarining nusxalari va boshqa hujjatlarni manfaatdor shaxslarga elektron shaklda yuborish mexanizmining joriy etilishi bilan bog'liqdir. Xususan, FPKning 223-moddasiga o'zgartish kiritilib, unga ko'ra, taraflarning va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarning iltimosiga ko'ra, ularga sud hal qiluv qarorining yoki ish yuritishni to'xtatib turish, tugatish to'g'risidagi yoxud arizani ko'rmay qoldirish haqidagi ajrimning nusxasi imzo qo'ydirib topshirilishi yoki pochta orqali yoxud axborot tizimi orqali elektron shaklda yuborilishi nazarda tutildi.

Axborot tizimi orqali sud tomonidan elektron shaklda yuboriladigan sud hujjatlari qatoriga sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlari (FPKning 228-moddasi), sud buyrug'ini bekor qilish to'g'risidagi ajrimning nusxalari (FPKning 238¹⁰-moddasi), apellyatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi ajrimining yoki qarorining nusxasi (FPKning 319-moddasi), sudning yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishni qayta ko'rish to'g'risidagi ajrimi (FPKning 367-moddasi) va sud tomonidan chiqariladigan boshqa bir qator hujjatlari kiritildi.

Protsessual qonunchilikka kiritilgan yuqoridagi kabi tartiblarning ahamiyatli tomonlari shundan iboratki, elektron shaklda ish yuritishda sud hujjatlarini yoki boshqa xujjatlarni tezkorlik bilan olish imkoniyati ortadi va ularni arxivdan tashishni talab etmaydi. Shuningdek, bunday tartibning joriy etilishi ishni ko'rish muddatlari va pochta xarajatlarini qisqartirishga, ishni ko'rish muddatlari, ishni ko'rish tayinlangan kun ustidan nazoratni yaxshilaydi.

Shu bilan birgalikda, ta'kidlash lozimki, sud bilan protsess ishtirokchilari o'rtasidagi elektron shakldagi forma majburiy bo'lmay, balki qo'shimcha vosita sifatida xizmat qiladi va bunda dispozitivlik prinsipi namoyon bo'ladi. Bu prinsipga rioya etilishi esa o'zaro axborot almashishning ishonchligini ta'minlash, murojaat qiluvchi shaxslarni identifikatsiya qilish va ularning hoxish-irodalarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mustaqilligimizni dastlabki kunlaridanoq, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya etishga xizmat qiladigan mustaqil davlat institutiga aylantirildi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan davlat hokimiyatining g'oyat muhim tarmog'i bo'lgan sud-huquq tizimini bosqichma-bosqich demokratlashtirish va erkinlashtirish xuquqiy davlatni shakllantirish va modernizatsiya qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzoq muddatli va izchil islohotlar dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga, rivojlangan demokratik davlatlar tajribasi va o'tgan davrda sud-huquq tizimini isloh etish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar mazkur faoliyatda elektron hujjat almashinuvini joriy etish orqali fuqarolik sud ish yurituvini yanada takomilashtirish zaruriyatidan guvovlik bermoqda. Chunki sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etmasdan, fuqarolarga odil sudlovni tezkorligi va qulayligini ta'minlash borasida muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Agar fuqarolik ishi birinchi instansiyada an'anaviy tarzda ko'rib chiqilgan bo'lsa, lekin da'vogar yoki javobgarning apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida elektron murojaat qilish istagi tugilsa, unda bunday imkoniyat beriladi. Xuddi shunday agar ish dastlab elektron murojaat asosida ko'rilgan bo'lsa-da, keyinchalik yuqori instansiyalarda an'anaviy, ya'ni yozma shaklda ko'rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, elektron murojaat sudga davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-xarakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar berishni, aloxida tartibda yuritiladigan ishlar, shu jumladan, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash, mol-mulkni egasiz deb topish bo'yicha arizalarni elektron shaklda topshirish imkoniyati ham paydo bo'ladi.

Sud va fuqarolar o'rtasida elektron muomala etish va xabardor etish mexanizmi ham ko'zda tutilib, Fuqarolik protsessual kodeksining 132, 135, 137-moddalariga o'zgartirish kiritish bilan sud chaqiruv qog'ozlari elektron shaklda yuborilishi mumkin. Buning uchun da'vogar o'z elektron manzili, telefon, faks raqamlarini arizada ko'rsatilishini o'zi kifoya. Shuningdek mazkur norma sud chaqiruv qog'ozining tarkibini ham ochib beradi.

Qonunchilik talabiga ko'ra, sud tarafga sud bo'ladigan vaqt va joy haqida ma'lum qilishi lozim. Elektron chaqiruv xati orqali sud bo'ladigan vaqt va joy ma'lum qilingach, uni ochib o'qish tarafning huquqi bo'ladi. Shuning uchun, xabardor qilinganligi fakti qayd etilishini ta'minlaydigan aloqa vositalaridan

foydalangan holda tomonlarni xabardor etish mexanizmi taklif etilmoqda. Bunday fakt mavjud bo'lganda, shaxs lozim darajada xabardor etilgan hisoblanadi va bu ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Elektron tarzda murojaat qilish tartibi joriy etilayotganligi munosabati bilan fuqarolik sud ish yurituvini yanada takomillashtirish, sud chiqimlarini kamaytirish, sudni o'ziga xos bo'lmagan funksiyalardan xoli etish maqsadida javobgarlarning soniga qarab ariza va unga ilova qilinadigan xujjatlarning nusxalarini sudga yuborilishini bekor qilish va shu bilan birga sudning ushbu hujjatlarni taraflarga qayta yuborish funksiyalarini chiqarib tashlash; da'vogarga sudga ariza va arizaga ilova qilingan xujjatlarning nusxalarini boshqa tomonga yuborish (topshirish) hamda yuborish (topshirish) faktini tasdiklovchi dalillarni sudga takdim etish majburiyati yuklash taklif etilmokda. Mazkur amaliyotni nafaqat birinchi instansiya sudlari, balki barcha yuqori instansiyalariga tadbiiq etish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, ko'pgina rivojlangan xorijiy davlatlar (AQSh, Germaniya, Angliya, Singapur, Malayziya, Yaponiya, Koreya) qonunchiligining taxlili shuni kursatadiki, fuqarolik sud ish yurituvida elektron hujjatlar foydalanish qonunlar bilan tartibga solingan bulib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqalisud protsessining barcha bosqichlarini bosib o'tish imkoniyatini ko'zda tutadi. Masalan, Germaniyada da'vo arizasini berishdan tortib, toki elektron sud ishini davlat arxiviga saklash uchun topshirilishi elektron shaklda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, har bir shaxsning o'z elektron raqamli imzosi bulib, ushbu imzo orqali har bir shaxsni identifikatsiya qilish imkoni mavjud. Da'vogar o'z elektron manzildan arizasini yuborgach, unda suddan ushbu ariza kabul qilinganligi yuzasidan ma'lumot keladi. Ta'kidlash joizki, sudga ketgan va undan kelgan xujjatlar ma'lum shifrga solinib, uchinchi shaxslarning ushbu hujjatlarni o'qishini istisno etadi.

Shu munosabat tomonlar o'z elektron manzillarini ko'rsatgan holda, sud chaqiruv qog'ozlarini mazkur manzillarga yuborish imkoniyati kiritilmoqda.

Shuningdek, sudlarga murojaat qilish fakatgina birinchi instansiya bilan cheklanmasdan, balki arizani elektron shaklda apellyatsiya, kassatsiya yoki nazorat instansiyalariga yuborish imkoniyati ham mavjud bo'ladi. Agar fuqarolik ishi birinchi instansiyada an'anaviy tarzda ko'rib chikilgan bo'lsa, lekin da'vogar yoki javobgarning apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida elektron murojaat qilish istagi tug'ilsa, unda bunday imkoniyat beriladi. Xuddi shunday agar ish dastlab

elektron murojaat asosida ko‘rilgan bo‘lsada, keyinchalik yuqori instansiyalarda an’anaviy, ya’ni yozma shaklda ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shuningdek, elektron murojaat sudga davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat va arizalar berishni, alohida tartibda yuritiladigan ishlar, shu jumladan, yuridik ahamiyatga ega bo‘lgan faktlarni belgilash, mol-mulkni egasiz deb topish bo‘yicha arizalarni elektron shaklda topshirish imkoniyati ham paydo bo‘ladi.

Sud va fuqarolar o‘rtasida elektron muomala etish va xabardor etish mexanizmi ham ko‘zda tutilib, Fuqarolik protsessual kodeksining 132, 135, 137-moddalariga o‘zgartirish kiritish bilan sud chaqiruv qog‘ozlari elektron shaklda yuborilishi mumkin. Buning uchun da’vogar uz elektron manzili, telefon, faks raqamlarini arizada ko‘rsatilishini o‘zi kifoya. Shuningdek mazkur norma sud chaqiruv qog‘ozining tarkibini ham ochib beradi.

Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning yana bir muhim jihati bu aloqa vositalari tarkibiga mobil telefonlarni kiritish bo‘lib, sud chaqiruv kog‘ozlarini SMS orqali yuborish va qabul qilish imkoniyatini yaratishdir.

Bunda nafaqat sudga elektron tarzda murojaat qilish balki ish bo‘yicha qabul qilingan sud qarorlarini elektron shaklda qabul qilish imkoni yaraladi. Buning uchun shaxs o‘z elektron manzilini da’vo arizasida ko‘rsatadi va hal qiluv qarorini olish uchun sudga murojaat qilgan taqdirda, unga tegishli qaror elektron axborot tizimida joylashtiriladi va shaxs istalgan Internetga ulangan kompyuter tizimidan mazkur qarorni ko‘chirib olish imkoniga ega bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, har bir sud qarori elektron raqamli imzo bilan muxofaza etiladi.

Elektron tarzda murojaat qilish tartibi joriy etilayotganligi munosabati bilan fuqarolik sud ish yurituvini yanada takomillashtirish, sud chiqimlarini kamaytirish, sudni uziga xos bo‘lmagan funksiyalardan xoli etish maqsadida javobgarlarning soniga qarab ariza va unda ilova kilinadigan xujjatlarning nusxalarini sudga yuborilishini bekor kilish va shu bilan birga sudning ushbu xujjatlarni taraflarga qayta yuborish funksiyalarini chiqarib tashlash; da’vogarga sudga ariza va arizaga ilova qilingan xujjatlarning nusxalarini boshqa tomonga yuborish (topshirish) hamda yuborish (topshirish) faktini tasdiqlovchi dalillarni sudga takdim etish majburiyati yuklash taklif etilmokda. Mazkur amaliyotni

nafaqat birinchi instansiya sudlari, balki barcha yuqori instansiyalariga tadbiq etish maqsadga muvofiq.

Bir soʻz bilan aytganda, Fuqarolik protsessual kodeksiga kiritilgan mazkur yangiliklar sudlar faoliyatida ochiq va oshkoralikni taʼminlashga xizmat qilish bilan birgalikda, fuqarolarning buzilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini tez va samarali himoya qilishga, sudlar faoliyatidagi sansalorlikning oldini olishga, maʼlumotlar bilan almashishning elektron vositalari orqali sud va protsess ishtirokchilarining oʻzaro hamkorlik qilish va ishlash samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

REFERENCES

1. https://www.unodc.org/documents/ji/training/19-03889_R_ebook.pdf
2. Yevropa Ittifoqi Vazirlar Kengashining 1995-yil 11 sentyabrdagi " Qarorlarni tanlash, taqdim etish, va hquqiy axborot izlash tizimlarida arxivlashtirish bo'yicha P (95) Tavsfiyasi" // 1997. № 11. - V. 2-3.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF - 11-son Farmoni.